



TA'LIMDA DIALEKTIK YONDASHUV ASOSIDA ANALITIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Janabergenova G.

NDPI Fizika o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'lim va tarbiya, innovasiya, texnologiya, metodik talablar, fikrlash, bahs-munozara, analitika.

Ключевые слова: образование и обучение, инновации, технологии, методологические требования, мышление, дискуссия, аналитика.

Key words: education and training, innovation, technology, methodological requirements, thinking, debate, analytics.

Kirish. Tafakkur ilmiy muammo sifatida qadimdan faylasuflarnigina emas, ruxshunoslarning ham tadqiqotlarida o'rganilgan. Faylasuf Rene Dekartning g'oyasiga ko'ra fikrlash insonning bu olamda mavjudligi belgisidir. "Fikrlayapman, demak, mavjudman",- deb yozgan edi u. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, tafakkur odatda muammodan, savoldan, tushunmaslik yoki ziddiyatlarni xal qilishga intilishdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda tafakkur ana shunday vaziyatlarda harakatga keladi. Muammoli vaziyatda. bilish sari intilish kuchayganda u faollashadi. Shu sababdan olimlar tafakkurni harakatdagi fikr sifatida o'rganadilar. Zotan harakat tafakkurning yashash shaklidir. Bu harakat alohidalikdan umumiylikka.umumiylikdan esa alohidalikka intilish shaklida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Psixolog A. V. Petrovskiy: "Tafakkur muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat nutq bilan chambarchas bog'liq psixik va sotsial-sababiy jarayondir...tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita umumlashtirib aks ettirish jarayonidir",-deb [1] izohlama, E. G'oziev tafakkur nafaqat psixologiyaning balki mantiq, falsafa xatto kibernetikaning ham tadqiqot ob'ektiga aylanganligini, faqat bu fanlar doirasida tafakkur ilmiy muammolarga bog'liq jihatlardan tadqiq etilishini ta'kidlagan [2]. Olimning fikricha, tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langan xotira, diqqat, tasavvur, idrok kabi



boshqa ruhiy jarayonlar bilan uyg'unlikda yuzaga keladi. Psixologlar tafakkur operatsiyalarini analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash kabi turlarga ajratadilar.

Tadqiqotchi olim M.Mirqosimova fikricha, «analitik tafakkur mantiqiy tafakkur xususiyatlarini ham qamrab olishi, tafakkur sur'atining tezligi, masalaga turli jihatlardan yondashishni talab etishi, qamrovliligi, muammoning asoslangan yechimini topish singari jihatlari bilan ustuvorlik qiladi. Bunday tafakkur egasi masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab- oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyatiga ham ega bo'ladi. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o'rganib, tizimga solish, taqqoslash, baxolash, mantiqiy fikrlash, dalillarga tayanish, mavjud axborotlarga tanqidiy qaray olish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish imkonini beradi. Binobarin, taraqqiyotning hozirgi darajasi har qanday kasb egasidan o'xshatish, qiyoslash, qismlarga ajratish, umumlashtirish, tizimlash, modellashtirish, tasniflash, mo'ljal qilish orqali o'z faoliyatini rejalashtirishni talab qiladi. Sanab o'tilgan sifatarning qaror topishi esa talabalarda yaxlit axborot madaniyati hamda zamonaviy, gumanistik dunyoqarashni shakllanishida asos vazifasini o'taydi. Ma'lumki, insondagi boshqa intellektual sifatlar singari analitik tafakkur ham o'z-o'zidanshakllanib qolmaydi. U tizimli amalga oshirilgan aqliy tadbirlar tufayli yuzaga chiqadi. Oliy adabiy ta'limda analitik tafakkurning analitik o'qishdan boshlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham oliy adabiy ta'limda talabalarga tahliliy o'qishni o'rgatish diqqatmarkazidagi didaktik tadbir sanalishi kerak»⁹. Demak, analitik tafakkur – yuksak tahliliy fikr yuritish sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu bilan birga axborotni analiz va sintez qilish, unga chuqur mushohadakorlik bilan yondashish, tanqidiy tahlil va mantiqiy muhokama qilish ham analitik tafakkurning asosi hisoblanadi. Shu bois bo'lajak kadrlarni, u tarixchi, biolog, yoki kimyogar, tilchi yoki matematik, yoki fizik bo'lishidan qat'iy nazar analitik tafakkurini rivojlantirishga alohida urg'u berish oliy ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talabalardan biridir. Bugungi kunda rivojlangan oliy ta'lim muassasalari o'zining o'qitish metodikasida bo'alajk mutaxassislarda bilimlarni o'zlashtirishlari bilan birga ularni tanqidiy va tahliliy baholash, xulosa qilishga qaratilgan analitik tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Tafakkur ko'rinishlari orasida shaxs eruditsiyasi va intellektini oshirishdagi samaradorligiga ko'ra alohida ajralib turadigan turi bu analitik tafakkur hisoblanadi. Analitik tafakkur yordamida o'rganilayotgan ob'ektga turli tarafdin yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda tekshirish imkoniyati hamda bir to'xtamga kelish taqazo etiladi. Ana shunday fikrlash salohiyatiga ega odamlarni qadimgi Yunonistonda analitiklar deb nomlaganlar.



Isbotlash san'ati sifatida izohlanadi [3]. Analitika atamasi ilk bor Aristotel tomonidan mantiqiy tahlil texnikasiga berilgan nom sifatida "Falsafa.Qomusiy lug'at"da "analitika" atamasi tahlil qilish, muhokama, i qo'llangan. Uning "Analitika" nomli asarida fikrlashning bu yo'siniga taalluqli ikki jihat: murakkab butunlikka ega bo'lgan ob'ektni dastlab oddiy qismlarga ajratish va ularni tekshirish asnosida tafakkur yuritishning murakkablashib borishiga e'tibor qaratiladi.


Nemis faylasufi Immanuel Kant analitikani insonning anglash qobiliyati deb atab, "Sof ong tanqidi" asarida birinchi bo'lib bilish jarayonini analitik va sintetik fikrlash singari ikki bosqichga ajratishni taklif etdi [4]. Analitik falsafaning ramziy otasi G.Frege analitik falsafada til ilmiy tadqiqot olib borish va uning natijalarini ifodalash vositasigina emas, balki falsafiy tahlilning predmeti ham hisoblanadi,deb ta'kidlaydi. Analitik falsafa o'zga falsafiy usulblardan o'z g'oyalari umumiy matn orqali emas, balki alohida gap orqali ifodalashiga ko'ra ajralib turadi. Faylasuf-analitik fikr va undagi gaplarning aniq ma'no tashishiga mantiqiy bog'lanishli bo'lishiga, aniqligiga jiddiy e'tibor qaratadi. Shuning uchun ham yoshlarning fikrlash salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikr kishisi qilib tarbiyalash qatorida nutqini o'stirish, tilni o'rgatish hamisha dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ayni masalalarga farzand tarbiyasida, oilada alohida e'tibor qaratish lozim. Analitik tafakkurni shakllantirish orqali qator ma'naviy sifatlarni tarkib topishi yuz beradi. Avvalo bola nutqini o'stirish uchun badiiy asarlarni o'qib o'rganish va tahlil qilishga yo'llash jarayonida o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon qilishga o'rganadi. Asarda tasvirlangan voqealar, hayotiy ziddiyatlar va muammolarni analiz, sintez qilish orqali muhimdan nomuhimni ajratish ko'nikma hamda malakalari shakllanadi, bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Muayyan masalalarni tafakkur yuritish orqali sabab oqibatlar haqida mushohada qilishga, to'g'ri yechim topishga o'rganib boradilar. Badiiy asarlardagi obrazlarga munosabat bildirish jarayonida odamlarga o'z munosabatini bildirishga o'rganib boradilar.

Muammoni keltirib chiqargan sabablarni topishga, muammo yechimini izlashga kirishib, chigal situatsiyalarda to'g'ri yechim topish malakasini hosil qiladilar. Oilada farzandlarning fikrlarini tinglash, o'ziga xos yondashuvlarini muhokama qilish, ma'lum o'rinlarda baxslashish yoki ular fikrini to'ldirish, turfa xil yechimlar, yondashuvlardan eng to'g'risini, eng asoslisini topishga o'rgatish - analitik fikrlashga yo'llash hisoblanadi.

Ta'lim bosqichlarida esa yoshlarni dialektik yondashuv asosida analitik faoliyatga yo'llash va bu faoliyatni rivojlantirishda mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlash malakasini shakllantirish shaxs sifatida rivojlanishlarining dinamik asoslarini tashkil etadi. Zotan, analitik uslubda fikrlash har qanday

masala yuzasidan chuqur, atroflicha mantiqli fikr yuritish bilan birga chiqarilgan xulosaning isbotlangan bo'lishi jixatidan ajralib turadi. Demak, yoshlarni analitik faoliyatga yo'llashda o'ziga xos yondashuv, qarashni aniq, mantiqli, ifodali bayon etish hamda asoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning tafakkur darajasi ham bilimlar turfaligi natijasida analitik tafakkur o'ziga xos qarashlarni yuzaga chiqishiga imkon beradi. Shuning uchun ham XX asrning o'rtalaridan boshlab G'arb mamlakatlari pedagogik amaliyotida analitik tafakkurni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlangan.

Zamonaviy tafakkur usuli qanday atalishidan qat'iy nazar, bunyodkor g'oyalarga kamarbasta bo'lmog'i, vayronkor g'oyalarga asoslangan mafkuralarning asl maqsad muddaolarini o'z vaqtida anglab olishi, bu borada oqni oqqa, qorani qoraga ajratishda odamlarga yordam berishi lozim. Zamonaviy tafakkur usuli hodisalarning hamma tomonlari va aloqasini e'tiborga olmaydigan usullarga qarshi bo'lmasdan, balki muhim xususiyat va hal qiluvchi omillarni ajrata olmasdan turli aloqa va munosabatlarni mexanik ravishda qo'shuvchi usullarga ham qarshidir. Xuddi shunday yondoshish inson bilishi va amaliy faoliyati muvaffaqiyatining asosiy shartidir.



1-rasm. Talabalarning analitik tafakkurni rivojlantirishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar [5]



Analitik tafakkur uslubi faqat aytish mumkin bo'lgan narsaga chegara o'rnatish masalasidagina qarshi bo'lgan. Mantiqiy tuzilgan tilda, metafizik gaplar shakllangan bo'lishi mumkin emas, negaki unda yanglishishga olib keladigan hech narsa bo'lmasligi kerak. Muammo mohiyati shundaki, kiritilayotgan o'zgartirishlar juda oson tushuniladigan, avval olingan ma'lumotlar bilinmos bo'lishi kerak. Ya'ni analitik tafakkur uslubi mantiqiy paradokslarni gaplarni istisno qilish yo'li bilan tushuntirishga moyil.

Analitik tafakkurni rivojlantirishda ko'r-ko'rona, dogmatik ravishda emas, ongli tanqidiy tafakkurning ahamiyati katta. Bunda avvalo shuni ta'kidlash joizki, aynan analitik fikrlash tanqidiy tafakkur taraqqiyotining eng oliy namunasidir. Demak, ana shu analitik tafakkurning rivojlanishidagi turli qarashlar, yondoshuvlar, konsepsiyalar orasidagi ziddiyatlar mavjudligiga e'tibor berilsa, talabada tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uncha qiyin muammo emas.

Analitik tafakkurni rivojlantirish uchun avvalo ushbu tafakkurning o'zi qanday bo'lishini aniqlab olishimiz kerak. Aslida, asl analitik tafakkurda skeptitsizm elementlari bo'lishi zarur. Masalan, «Pirron asos solgan skeptitsizning tanqidiy tafakkur taraqqiyoti uchun ahamiyati beqiyos bo'lgan. Vaholanki, tanqidiy tafakkurning shakllanishi nafaqat talaba uchun, balki har qanday kishining kundalik hayoti uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Zero tanqidiy tafakkuri shakllangan kishini hech kim o'z “qo'g'irchog'i”ga aylantira olmaydi va u o'z hayotida boshqalarga nisbatan kam xatoga yo'l qo'yadi. Lekin, tanqidiy tafakkur nimaligini tushunish borasida katta chalkashliklar ham mavjud. Bu chalkashliklar orasida eng yomoni kishining bu tanqidni faqat tashqariga qaratib, o'zining xato va kamchiliklarini ko'ra olmasligidadir. Shu kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun va talabadan salbiy ma'nodagi “sofist” (demagog, safсатаboz) kelib chiqmasligi uchun» tanqidiy tafakkurning asosiy xususiyatlarini aniqlashga tayyorlash zarur [6].

Tanqidiy tafakkur muayyan ahborotni o'zgaralar fikridagi xato va kamchiliklarni izlab topish maqsadiga emas, balki uni tahliliy o'rganishga yo'nalgan tafakkurdir. Shunga ko'ra chinakam, oliy madaniyat doirasidagi tanqidiy tafakkur quyidagi jihatlarni o'z mazmuniga qamrab oladi:

- o'z fikriga qarshi turgan yangi fikr va g'oyalar uchun ochiqligi;
- o'z fikr va qarashlarida xatolarga yo'l qo'ymaslikka, borlarini bartaraf etishga intilishi;
- turli fikrlar orasidan to'g'ri va noto'g'rilarni tarafdashlik qilmasdan, ya'ni ob'ektiv ravishda farqlashga intilishi;
- o'zi tushuna olmagan masala yuzasidan tanqidiy fikr bildirmaslik, tushunmasligini tan olish;

- fikrdagi asoslangan va asoslanmagan xatolarni farqlash va h.k. Albatta, kishida bilimga kuchli qiziqish bo‘lsa, unda tanqidiy tafakkur madaniyati ham intuitiv yaxshi shakllangan bo‘ladi. Lekin talaba xarakterida oldindan shakllangan o‘z shaxsini ko‘z-ko‘z qilishga, maqtanishga moyillik, kibr kabi illatlar analitik tafakkurni rivojlantirish uchun juda zarur bo‘lgan asl tanqidiy tafakkurning shakllanishi yo‘lida katta to‘siq bo‘ladi.

Bo‘lajak mutaxassislarda rivojlantirish talab etilayotgan analitik tafakkur murakkab fikrlash uslubi bo‘lib, uning shakllanishi axborotni passiv qabullashdan boshlab muayyan muammolar yechimiga mustaqil kelishga qadar turli bosqichlarni bosib o‘tadi. Tanqidiy tafakkur asl ma‘nodagi talabalarda kuchli rivojlangan bo‘ladi. Demak, biz o‘z talabalarimizni yuksak analitik tafakkurga ega mutaxassislar sifatida tarbiyalay olishimiz uchun unda avvalo tanqidiy fikrlash qobiliyatini uyg‘otish va rivojlanish uchun shart - sharoit yaratishimiz kerak. Bunda pedagogning ma‘ruzalaridagi tanqidiy ruh, tafakkur tarzi eng muhim va zaruriy shart-sharoit, zamin, asos bo‘lib hizmat qiladi.

Bugungi kun ta‘lim analitik tafakkurga urg‘u berish orqali bo‘lajak kadrlarda quyidagilarni rivojlantirishni maqsad qilmoqda [8]:

Aqlning peshqadamligi belgilangan muddatda ko‘pchilik o‘ylab ko‘rishga ulgurmaydigan muammolar bo‘yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko‘rsata olish hamda ularning barchasining o‘ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatidir.

Tafakkurning egiluvchanligi jamiyatda qabul qilingan va an‘anaviy mavjud bo‘lgan, aslida to‘g‘ri deb o‘ylangan shablon yo‘nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo‘nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o‘z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo‘nalishlariga o‘zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa o‘z sohasi rivojidagi istiqbol o‘zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko‘tarilishi va pasayishi, konyunktura yoki bozorning o‘zgarishi hamda mazkur o‘zgarishlarning sohaga bo‘lgan ta‘siri, narxlarning ko‘tarilishi va pasayishi va hokazo.

Natijalar. Analitik tafakkur mantiqiy tafakkur xususiyatlarini ham qamrab olishi, tafakkur sur‘atining tezligi, masalaga turli jihatlardan yondashishni talab etishi, qamrovliligi, muammoning asoslangan yechimini topish singari jihatlari bilan ustuvorlik qiladi. Bunday tafakkur egasi masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o‘rganib, tizimga solish,



yuksalib borishiga balki, jamiyat ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turlicha tafakkur usullari mavjud va ularning har biri haqiqatni ochib bera oladigan tafakkurning universal usuli o'rini bosishga harakat qiladi. Lekin, «ularning ko'pchiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi davr talabiga javob bera olmaganligi uchun muayyan darajada inkor etildi. Sofistik, eklektik, metafizik, mexanistik, metafizik va boshqa tafakkur usullari shular jumlasidandir. Garchand ular bugungi kunda ham stixiyali tarzda, ahyon-ahyonda qo'llanilsada, ammo zamonaviy tafakkurning ustivor usuli bo'la olmaydi. Xuddi shunday dialektik va bugungi kunda ko'pchilikning e'tiborini tortayotgan sinergetik usullar xam inson tafakkurining mutlaq, yakkayu-yagona uslubi bo'lib qolishi dargumon. Ular ham umuminsoniy tafakkur «pillapoya»larida o'z o'rni va ahamiyatiga ega boshqa usullar qatoridan o'ziga xos joy egallaydi». Insoniyat bu usullarning har birini kerakli sohada va zarur bo'lganida ishlatishni o'rganib olgan hamda amaliyotda bu tajribaga tayanib, faoliyat yuritaveradi.

Adabiyotlar:

1. Petrovskiy A. V. va boshq. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi. - 2012.
2. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. T.: O'qituvchi. - 2010.
3. Falsafa. Qomusiy lug'at. T.: Sharq. - 2014
4. Elektron manba: https://methodological_terms.academic.ru
5. Folomkina S.K. Analitik fikrlash, M.: Ma'rifat. - 2007 yil
6. G.A.Nazarova "Bo'lg'usi iqtisodchilarda analitik tafakkurni rivojlantirishning innovatsion-pedagogik omillari" FarDU. Ilmiy xabarlar №5-2021 (176-181)
7. G.I.Alimjonova "Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining texnoetik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari" FarDU. Ilmiy xabarlar №5-2021 (182-185)
8. Axmedova G. A., Fayzullaev J. I. Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini uni baholash va rag'batlantirishning samarali usullari asosida boshqarish // Gumanitar va tabiiy fanlarning dolzarb muammolari. – 2014. 4-1.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
10. Hakimova M.F. Kasb pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2018.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta'lim dargohlarida dialektik yondashuv asosida analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik zarurati, bugungi oliy ta'lim muassasalarida tafakkurni rivojlantirishning mavjud holati va kamchiliklarni baratarf etish imkoniyatlari va yechim yo'llari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek analitik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik amaliyotning nazariy-metodologik jihatlari muhokama etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируется педагогическая необходимость развития аналитического мышления на основе диалектического подхода в образовательных учреждениях, современное состояние развития мышления в современных вузах, а также возможности и пути устранения недостатков. Также в статье рассматриваются теоретико-методологические аспекты педагогической практики, направленные на развитие аналитического мышления.

SUMMARY

The article analyzes the pedagogical necessity of developing analytical thinking based on a dialectical approach in educational institutions, the current state of developing thinking in today's higher education institutions, and the possibilities and solutions for eliminating shortcomings. The article also discusses the theoretical and methodological aspects of pedagogical practice aimed at developing analytical thinking.